O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

# YOSHLAR OVOZI

№ 1 (16455)
2022-YIL
5-YANVAR,
CHORSHANBA

BIZ — KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Молодежь Узбекистана

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ
YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU
@YOSHLAROVOZIUZ
@YOSHLAROVOZI

IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY, ADABIY-BADIIY GAZETA

## JAHON CHEMPIONI NODIRBEK ABDUSATTOROVNI TAQDIRLASH MAROSIMI TASHKIL ETILDI

*3-yanvar kuni poytaxtimizdagi Milliy olimpiya qo'mitasida Polsha poytaxti Varshavada shaxmatning rapid yo'nalishida jahon chempionligini qo'lga kiritgan 17 yoshli iste'dodli grossmeysterimiz Nodirbek Abdusattorovni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.*












Davomi 2-sahifada.

SARHISOB

## YANGI YILGA ULKAN REJALAR BILAN QADAM QO'YDIK

***Pandemiya keltirib chiqargan noqulaylikka qaramay, 2021-yilni salmoqli mehnat natijalari bilan yakunlab, yangi yilga ulkan orzu va rejalar bilan qadam qo'ydik. O'tgan yil xalqimiz uchun ham, Vatanimiz uchun ham yangilanishlar davri bo'ldi, desak, sira mubolag'a emas.***

Xo'sh, qo'mitamiz o'tgan yilda nimalarga erishdi?

Dastlab qo'mitaning qonunchilik faoliyatiga kengroq to'xtalmoqchimiz. Hisobot davrida Senatga kelgan qo'mita faoliyatiga tegishli 6 ta qonun mutasaddi vazirlik, idora va jamoat tashkilotlari, qo'mita huzuridagi ekspertlar guruhi vakillari ishtirokida dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, qo'mita a'zolari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarida, xalq deputatlari Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Navoiy, Jizzax, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent shahri Kengashlaridan Senatga kelib tushgan qonunlar yuzasidan muhokamalar o'tkazildi.

Shularga mos ravishda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi hamda "Muzeylar to'g'risida"gi qonunlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan qonunosti hujjatlari qabul qilinishi va amalda qo'llanilishi holati yuzasidan monitoring o'tkazildi.

Qo'mitamizning bu davrdagi nazorat-tahlil faoliyati ham samarali bo'ldi. Masalan, 2021-yil 23–26-fevral kunlari qo'mita tomonidan Prezidentimiz ilgari surgan besh muhim tashabbus doirasida Sirdaryo viloyatida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan mahalliy Kengashlar bilan birgalikdagi sektor rahbarlarining axborotlari eshitildi. Dastlab besh muhim tashabbusga mas'ul vazirlik va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhi tuzilib, viloyat, tuman va shaharlar o'rganildi.

23–27-mart kunlari "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning Jizzax viloyatidagi ijrosi mahalliy



Kengashlar, ishchi guruhi va Yoshlar parlamenti a'zolari bilan birgalikda tahlil qilib chiqildi.

Davomi 2-sahifada.

WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI
YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

# JAHON CHEMPIONI NODIRBEK ABDUSATTOROVNI TAQDIRLASH MAROSIMI TASHKIL ETILDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.




Xabaringiz bor, 2021-yil 26–30-dekabr kunlari Polshada shaxmatning blits va rapid yo‘nalishi bo‘yicha o‘tgan jahon chempionatida Nodirbek Abdusattorov rapid yo‘nalishida dunyoning amaldagi yetakchi shaxmatchilarini mag‘lub etib, chempionlikni qo‘lga kiritdi. Yosh va navqiron shaxmatchimizning bu g‘alabasi bir necha kun davomida sport olamini, xususan shaxmat dunyosini larzaga keltirdi.

Jahon axborot vositalari, internet tarmoqlari Nodirbek, uning Vatani O‘zbekiston, jannatmakon yurtimizning boy tarixi, an’analari, xalqimizning asrlarga tatigulik o‘tmishi, jahon tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan allomalarimizning aql-idroki xususida keng ko‘lamli chiqishlar qildi, e’tirof etdi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi Abdujabbor Abduvohidov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o‘rinbosari, Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, turizm va sport vaziri, mamlakat shaxmat federatsiyasi raisi Aziz Abduhakimov, Milliy olimpiya qo‘mitasi raisi Rustam Shoabdurahmonov, Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator Alisher Sa’dullaev, Nodirbek Abdusattorovning ota-onasi, yaqinlari, sport jamoatchiligi, sport faxriylarimiz ishtirok etdi.

Bayramona bezatilgan Milliy olimpiya qo‘mitasining keng maydonida jam bo‘lgan yosh sportchilar, Vatanimiz sharafini olimpiya o‘yinlarida, jahon chempionatlarida, nufuzli xalqaro musobaqalarda munosib himoya qilgan sportchilar, bo‘lg‘usi chempionlar bayroqchalar, gullar bilan iste’dodli shaxmatchilar — tadbir qahramonlarini qarshiladi. Bu, tom ma’noda, bir maqsad – Yangi O‘zbekistonning kelajagini, uning nurli istiqbolini bunyod etishga azm-u qaror qilgan xalqning, yoshlarning jipsliligi, hamjihatliligi timsoli bo‘ldi.

Tadbir avvalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Nodirbek Abdusattorovga “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti berilishi to‘g‘risidagi farmonini davlat maslahatchisi Abdujabbor Abduvohidov o‘qib eshittirdi. Sherzod Asadov chempionimizga davlatimiz rahbari nomidan Toshkent shahridan ikki xonali uy kalitini topshirdi. Aziz Abduhakimov Nodirbek Abdusattorovga 250 million, uning murabbiylari Jahongir Vohidov hamda marhum Dmitriy Qayumovning oilasiga 100 million so‘mdan, blits yo‘nalishi bo‘yicha jahon chempionatida 8-pog‘onadan joy olgan Javohir Sindorovga 50 million so‘m, munosib ishtiroki uchun Shamsiddin Vohidovga 25 million so‘m pul mukofotlarini topshirdi.

Tadbirning badiiy qismida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Yodgor Sa’diyev, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri Sirojiddin Sayyid iste’dodli shaxmatchimizning tarixiy g‘alabasi xususida so‘z yuritib, bu mamlakatimiz yoshlarining yorqin g‘alabasi, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi hayotbaxshligining yorqin ifodasi ekanligini ta’kidlashdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning, xalqimizning bunday e’tiboridan mamnun bo‘lgan Nodirbek va uning ota-onasi Fazliddin Ochilov va Muyassar Ochilova faxr hissini tuydi.

O‘z navbatida, jahon shaxmat tarixida yangi zarvaraq ochish asnosida O‘zbekiston xalqining aql-idroki, salohiyati nechog‘lik yuksak ekanini namoyish etgan Nodirbek Abdusattorov:

– Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va hukumatimizning biz, yoshlarga qaratayotgan e’tiboridan xursandman. Nasib qilsa, kelgusida klassik yo‘nalishda ham jahon tojini kiyishga va’da beraman. Bu yo‘lda meni qo‘llab-quvvatlab turgan barchaga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman, – deya e’tirof etdi.

Marosimning ikkinchi qismi Vatanimizning bunyodkorlik va intellektual salohiyati timsoli bo‘lgan “Yangi O‘zbekiston” majmuasida davom etdi.

Yosh va salohiyatli shaxmatchimiz, jahon chempioni Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov, Shamsiddin va Jahongir Vohidov, ularning ota-onalari, yaqinlari muhtasham va tarovatli bog‘ning keng maydonida minglab yurtdoshlarimiz tomonidan qarshi olindi. Gullar taqdim etildi. Ezgu tilaklar bildirildi.

“Yangi O‘zbekiston” bog‘i majmuasidagi tantanalar ezgu tilaklarga, xalq va chempion, uning ota-onasi va jurnalistlarning muloqotiga, bir-biriga yangi yil izhorlariga ulanib ketdi. Betakror bog‘ majmuasidagi tilaklar, oddiy insonlarning qalb-qo‘ridagi kechinmalar, Nodirbekka havasmand baxtiyor chehralarda Vatanimizning ertasiga, farzand-u arjumandlari kelajagiga ishonch hissi jo bo‘lgan ota-onalar, yoshlar “O‘zbekistonimizda shunday chempionlar ko‘paysin, Nodirbeklarimiz yanada ko‘paysin, Prezidentimizning jonfidoligi, tashabbuskorligi atrofida jam bo‘lib, Yangi O‘zbekistonning porloq kelajagini bunyod etishda, uchinchi renessans poydevorini mustahkamlashda hamjihat bo‘laylik”, degan tuyg‘ular ko‘ngillarning tub-tubida jilolanib turdi.

Nodirbek Abdusattorovning dunyo “aqllilari” — shaxmat tojdorlari orasida o‘z munosib o‘rnini egallashi, chempionlik rutbasiga ko‘tarilishi xalqimizning asriy orzulari, yurak-yuraklarimizda depsinib turgan tuyg‘ularimizning aksi emasmi?!

**To‘lqin RO‘ZIYEV,**
**Nurilla NASRIYEV**
*Muhammad AMIN (O‘zA) olgan suratlar.*

# YANGI YILGA ULKAN REJALAR BILAN QADAM QO‘YDIK

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

O‘rganish natijalari qo‘mita hamda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi qo‘shma majlisida muhokama etildi. Yakunda shu yuzasidan qo‘shma qaror qabul qilinib, 14 ta vazirlik va idora uchun vazifalar belgilanib, ijroga yo‘naltirildi. Hozirgi paytda ushbu qo‘shma qarorlar ijrosi yuzasidan doimiy monitoring olib boryapmiz.

Shu o‘rinda o‘tgan yilda yo‘lga qo‘yilgan muhim yangilik xususida to‘xtalish zarur. Gap shundaki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, bandligini ta’minlash, salomatligini saqlash, ta’limga jalb etish, tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlikka yo‘naltirish singari masalalarda olib borilayotgan ishlarni baholash bo‘yicha Nizom va baholash indikatorlari ishlab chiqildi. So‘ngra mazkur masala Senatning o‘n yettinchi yalpi majlisi muhokamasiga kiritilib, tegishli qaror qabul qilindi. Shu sa’y-harakatlarimiz natijasida mutlaqo yangi tizim, ya’ni hududlarda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishini reyting baholash amaliyotga joriy etildi.

Bu hali hammasi emas. O‘tgan yil sentabr va oktabr oylarida 14 ta hududda mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari, mahalliy Kengashlarning tegishli doimiy komissiyalari hamda Yoshlar parlamenti a’zolari ishtirokida reyting tizimi mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan o‘quv seminarlar o‘tkazildi. Ularda 700 ga yaqin mas’ullar ishtiroki ta’minlandi.

Faoliyatimizdagi muhim yo‘nalishlardan yana biri, shubhasiz, xalq bilan muloqot hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash hisoblanadi. Shu maqsadda o‘tgan yilning 11-15-yanvar kunlari Prezidentning Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlari sessiyalari doirasida uchrashuvlar tashkil etilganini aytib o‘tish o‘rinlidir.

O‘z navbatida, Oliy Majlis Senati yalpi majlislaridan keyin ularda ko‘rib chiqilgan qonunlar va boshqa dolzarb masalalar mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholiga yetkazish maqsadida turli tadbirlar o‘tkazildi. Masalan, o‘tgan yilning 10-13-fevral kunlari Senatning o‘n ikkinchi yalpi majlisida ma’qullangan qonunlar, ko‘rilgan masalalar, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi mazmun-mohiyatini aholi orasida tushuntirish, jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazish hamda Senatga kelib tushgan fuqarolar murojaatlarini joyida o‘rganish maqsadida Samarqand viloyatiga xizmat safari uyushtirildi.

Dastlab Senat huzuridagi Yoshlar parlamentining Samarqand viloyatidagi a’zolari ishtirokida xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining kotibiyati, doimiy komissiyalari hamda jamoatchilik ishtirokida uchrashuv o‘tkazildi. Unda 2021-yil davlat dasturida belgilangan muhim masalalar, Senatning 12-yalpi majlisida ko‘rib chiqilgan qonunlar, 2021-yildagi ustuvor yo‘nalishlar hamda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan birgalikda olib boriladigan vazifalar haqida atroflicha ma’lumot berildi.

Hisobot davrida qo‘mitamiz a’zolari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan 592 ta yozma murojaat ko‘rib chiqildi va 36 ta sayyor va 105 shaxsiy qabul tashkil etildi. Pirovardida 351 ta masala ijobiy hal qilindi.

Shuningdek, qo‘mita a’zolari tomonidan murojaatlarda aniqlangan masalalar yechimi yuzasidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga 30 ga yaqin senator so‘rovlari yuborildi.

Umuman olganda, qo‘mitamizning o‘tgan yildagi faoliyati chakki bo‘lmadi. Yangi yilda esa oldimizda bir-biridan muhim vazifalar turibdi. Bu vazifalarga ham katta mas’uliyat bilan yondashib, albatta, ularni uddalaymiz.

**Baxtiyor SAYFULLAYEV,**
**Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi**

**Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan.

TAASSUROT

# HAYRAT, TAASSUROT, MINNATDORLIK

***Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash masalasiga davlat darajasida e'tibor qaratilayotgani, ular o'z kasbining fidoyisi bo'lib voyaga yetishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilayotgani quvonarli. E'tirof-u e'zozdan ruhlangan umidimiz yulduzlari qo'lga kiritayotgan natijalar ham hayratlanarli. Aslida, bu natijalar tasodif emas. Axir ular butun dunyoni hayratga solgan, o'z ilmi bilan ma'naviyatimizning asl sarchashmalarini yaratib ketgan buyuk allomalarimizning munosib izdoshlari.***



Shu o'rinda ko'nglimda faxr va iftixor tuyg'usi jo'sh urganidan bir lahza bo'lsa-da, tarix sahifalarini varaqlashni istadim: IX asrda buyuk bobokalonimiz Muhammad al-Xorazmiy algebra faniga asos solib, millatimizning bu sohada tengsiz ekanini butun jahon ommasiga isbot etdi. X asrda Abu Nasr Forobiy Aristotelning "Metafizika" asariga eng mukammal sharh yozib, "ikkinchi ustoz" unvonini olgan bo'lsa, XI asrda Abu Rayhon Beruniy Yer bilan Oy o'rtasidagi masofani o'lchadi, Ibn Sino esa, tibbiyot Qomusi — "Tib qonunlari" asarini yaratdi.

XIV asrda Sohibqiron Amir Temur Yevrosiyoning yarmini tasarrufiga olib, 27 ta davlatni o'z bayrog'i ostiga birlashtirib, markazlashgan Turon davlatiga asos soldi. Shu bilan birga, dunyo ilm-fani rivojida o'z o'rniga ega bo'lgan olimlar, fuzalolar, ulug' insonlarning boshini silab, o'lmas obidalar yaratilishiga hissa qo'shgan, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'atning rivoji uchun zamin hozirlagan bo'lsa, XV asrda Mirzo Ulug'bek 1018 ta yulduzning jadvalini tuzdi.

So'z mulkining sultoni Hazrat Navoiy go'zal va muhtasham asar "Xamsa"ni yozib, turkiy tilning nihoyatda boy va jozibali, ohangdor, nafis hamda serjilo ekanini dunyo ahliga namoyon etdi. Bu bilan turkiy tilni zulmat va haqorat botqog'idan sharaf osmonining eng oliy peshtoqiga olib chiqdi.

XVI asrda Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Boburnoma" dunyoga kelgan bo'lsa, XVII asrda Shohjahon dunyodagi yetti mo'jizaning biri deb e'tirof etiladigan o'lmas obida — "Tojmahal"ni bunyod etdi...

Ulug'larimiz nomini qancha sanasak, shuncha ko'pligi barchani hayratga solsa, ularga munosib bo'lishga intilayotgan yoshlar safi kengayib borayotgani yana ulkan quvonchdir. Kuni kecha Polsha poytaxti Varshava shahrida shaxmatning rapid yo'nalishida 17 yoshli shaxmatchimiz Nodirbek Abdusattorov jahon shaxmatining bugungi "ustunlarini" taslim etib, jahon chempionligini qo'lga kiritgani navbatdagi yutug'imizdir.

Shu yurtda yashayotgan har bir inson qalbiga g'urur bag'ishlaydigan bu jarangdor nomlar tariximizni bezab turibdi. Ishonamanki, yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar Yangi O'zbekiston bunyodkorlarining safi kengayishiga, bobolariga munosib izdosh bo'lishiga zamin bo'ladi. Bu yoshlar, albatta, Vatan uchun xizmat qiladi hamda uning sharafli nomini ko'klarga ko'taradi.

Bizdan talab qilinadigani ajdodlarga munosib avlod tarbiyalashdir. Bu masala hayotimizning mazmuniga aylanmog'i zarur. Ayniqsa, ziyolilar zimmasidagi yuk juda og'ir. Chunki ular millatning ertasi bo'lgan, ko'zi yoniq va yuragi shijoatga to'la yoshlarni tarbiyalaydi.

O'tgan yil dekabr oyida "Toshkent: Yoshlar forumi-2021" doirasidagi tadbirlarda ham shunday sururni yurak-yuragimdan tuydim. Bilasizmi, jarayonda har bir tizim rahbarlari yoshlar oldiga chiqib, hisob berishi, yoshlarning esa, o'zini bezovta qilgan muammoli savollariga ulardan javob so'rashi — yurtimizda olib borilayotgan shaffof siyosatning yorqin ko'rinishidir. Yoshlar va rahbarlar o'rtasidagi to'siqlar, ma'lum bir yozilmagan cheklovlar olib tashlangani shu emasmi?!

Tadbirda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etilayotgan "Ma'rifat maydoni", "Talabalar teatr studiyalari" festivali, "Zakovat" intellektual tanlovi g'oliblarining ishtirok etishi yoshlarga e'tiborning yana bir namunasi, ularga bo'lgan ishonch, yangi yilda yangi marralarni zabt etishga chorlov, desam xato bo'lmaydi.

Prezidentimizning "Uchinchi Renessansni yoshlar bilan birga quramiz", degan purma'no so'zlari bejiz aytilmaganini ko'rib turibmiz. Men ma'naviyatchi sifatida yoshlar masalasida amalga oshirilayotgan barcha ishlarni qo'llab-quvvatlayman. Oltindan ham qimmat vaqtingizni unumli sarflab, Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'shish yo'lida hamisha omadlilar safida bo'ling, aziz yoshlar.

**Mirzohid BOTIROV,**
**Farg'ona politexnika instituti prorektori**

# OILADAGI G'AM-TASHVISHLARNI YELKASIDA KO'TARADIGAN ODAM

**"...Mening dadam to'rt qiz va ikki kelinini o'qitgan. Shunday paytlar bo'lganki, hatto oyog'iga eng arzon shippak olishga ham puli qolmagan."**

"....Mening dadam har doim qo'ng'iroq qilganida "Ona qizim, o'syapsanmi yoki haliyam bir joyda qotib turibsanmi, deya savol beradi. Shunday paytlarda o'z ustimda izlanmaganimdan uyalib ketaman".



"...Men og'ir betob bo'lib qolganimda dadam eng ko'p qon bergan..."

Bu misralarning qahramonlari siz-u bizning oramizda yashayotgan insonlardir. Ijtimoiy tarmoq orqali o'tkazgan so'rovnomamizda ayrim muxlislarimiz otalari haqidagi ushbu fikrlarni qoldirishgan.

Ota nafaqat oilasidagi, balki dunyodagi barcha muammolarni, yaxshilig-u yomonliklarni o'z yelkasida ko'taradigan inson. U farzandlari uchun ulkan tog', ayoli uchun esa himoya qo'rg'onidir.

Barchamizning bugun jamiyatda qanday mavqega ega ekanimiz ko'p jihatdan otamizdan olgan tarbiyamizga, ibratimizga bog'liqdir. Anglaganingizdek, bugungi maqolamiz qahramonlari otalardir.

Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani xalq ta'limi va tuman ma'naviyat bo'limi hamkorlikda maktablarda "Otalar kuni" doirasida tadbirlar tashkil etishdi. "Oilada farzand tarbiyasida otaning o'rni" mavzusida o'tkazilgan insholar tanlovi g'oliblarining otalariga tashakkurnomalar topshirildi.

– Maktabimizda 900 nafardan ziyod o'quvchi tahsil oladi, – deydi tumandagi 3-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulzoda Tosheva. – Tanlov 8-, 9-, 10-, 11-sinf o'quvchilari o'rtasida bo'lib o'tdi.

Insholarni o'qir ekanman, bir-biridan qiziq va samimiy yozilgan jumlalarga duch keldim.

"...Mening dadam sehrgarga o'xshaydi, uning sehrli tayoqchasi bor bo'lsa kerak, deb o'ylab qolaman, ba'zida. Chunki dadam bizni yaxshi yashashimiz uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beradi."

"...Bu yil ikkinchi opam ham shartnoma asosida o'qishga kirdi. Katta opam ham shartnoma asosida o'qiydi. Kenja opam shartnoma pulini to'lashga qiynalasiz, bu yil tayyorlanib, keyingi yil grant asosida o'qishga kiraman, deb rad etsalar ham dadam qiynalsam ham o'qitaman, deb ko'nmadi".

"...Dadam bizga qattiq gapirmaydi, biror xato qilsak urishmaydi, ammo shunday nigoh bilan qaraydiki, nima demoqchi bo'lganini ko'zlaridan bilib olamiz..."

Bu o'quvchilarim yozgan insholardan ayrim misollar. Men otalar mavzusida yozilgan insholarni eng chiroyli insholar, deb baholagan bo'lar edim.

Ba'zida ayrim otalarning oiladagi roli pasayib qolgani, o'z mas'uliyatini his qilmayotgani, ichkilikka mukkasidan ketgani haqida eshitib qolamiz. Ammo bir narsani unutmaylik! Ota qanday kamchiliklarga ega bo'lmasin, farzandlari uchun hamisha ideal qiyofada gavdalanaveradi. O'g'il biror muammoga duch kelganida, eng avvalo ortimda otam bor deb, o'zini yupatadi. Qiz bolaning ko'ngli o'ksiganida otasidan yupanch, dalda kutadi.

Ha, farzandlar eng avvalo otasiga suyanadi va ishonadilar. Ular otasi haqidagi yomon fikrlarga ishonishmaydi. "Mening dadam hammadan yaxshi", degan fikr ularning qalbiga xotirjamlik baxsh etadi. Farzandlarimiz uchun hamisha hammadan yaxshi inson bo'lib qolaylik.

**Nigora RAHMONOVA,**
**O'zA muxbiri**




# FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI JAMOASI

Siz aziz yurtdoshlarimizni, jumladan, hurmatli ustozlar va qadrli yoshlarni kirib kelgan yangi 2022-yil bilan muborakbod etadi.
Yangi boshlangan 2022-yil yaxshi niyatlarimiz ijobat bo'ladigan omadli va fayzli yil bo'lsin.
Yangi yil siz uchun qutlug' kelgan bo'lsin!



*Reklama huquqi asosida*

К ЮБИЛЕЮ ПОЭТА






*Герою Узбекистана, народному поэту Эркину Вахидову 28 декабря исполнилось бы 85 лет*

# Спешите за секундою любой

Лишь семи месяцев не дожил великолепный мастер слова до восьмидесятилетия. Не случайно, словно предчувствуя свой уход, в стихотворении «Кардиограмма» он задавал вопрос: «Слушай, сердце, ты преданным было доныне, – Что ж теперь взбунтовалось ты против меня?» В этом произведении автор обращается к собственному кодексу чести. Ломаный след кардиограммы сравнивает с жизненным путем, отмечая «взлеты, паденья, холмы и низины», «тернистые тропы» юности и поступки, продиктованные сердцем:




***Или черное белым назвал***
***я притворно,***
***Этим вывертом радуя***
***чей-либо слух,***
***Или, видя неправду,***
***смолчал я покорно***
***И к заведомой криведе***
***и слеп был и глух?***

Риторические вопросы сменяются размышлением о предназначении человека в «напористом неуемном веке», где «ноша Земли накрепко притерта к сердцу». Оптимистично звучит обращение к грядущим поколениям:

***Те, что придут вслед за нами,***
***Вспоминать станут***
***с завистью наши сердца...***

То есть молодым передается благородство сопричастности, умение слышать голос планеты и живущих рядом людей, стремление делиться с другими своим теплом.

К сожалению, на русский язык переведена лишь малая часть огромного литературного наследия Эркина Вахидова, и это нацеливает на вдумчивое восприятие каждой фразы, каждого образа поэта, мечтавшего: «Если б строка моя тронула души!»




Желание Героя Узбекистана сбылось. Читая его стихи, мы все больше убеждаемся, что метафора «Поэт – народа пламенное сердце» очень точно характеризует самого Эркина Вахидова, который поражает свежестью мысли, глубоким идейным содержанием, призывом беречь время и действовать на благо людей. Это им, беззаботным юношам и девушкам, напоминается: «Как незаметно пролетает жизнь», чтобы они наполнили свои дни познанием и движением к цели. Символично уже название первого сборника, вышедшего в 1961 году. «Дыхание зари». В жизнь врывается новизна поэтических строк, поток которых становится мощнее с годами и увлекает раздумьями о проблемах мироздания.

Кажется, нет таких тем, которые не вошли в поле зрения автора. Он говорит о ценности памяти («Чтоб в сердце не погасло никогда минувшего высокое сиянье»), о воспитании подрастающего поколения («Пусть никто, однажды повзрослев, В мир людей не явится шайтаном»), о сходстве шахматных баталий и истинной поэзии («Шахмат фигуры и гневные строки на королей поднимаются в бой»), о бережном отношении к родному языку («На нем шестьсот моих общались предков, Хоть шесть потомков вспомнят ли о нем?»), об экологических трагедиях («Природа мстит за беды человеку, Суда потомков мы не избежим»)...

Его «Ода человеку» стала пронзительной песней клипа, посвященного 75-летию ООН. Прозвучала на восьми языках: узбекском, русском, таджикском, казахском, турецком, арабском, английском, итальянском. Отмечая противоречивость действий человека, поэт заклинает: «Путь сумей пройти достойно». Клип ярко иллюстрирует утверждение «Умрет поэт – останется строка». Их много, и они зовут вырваться из комфортного мирка равнодушия и себялюбия, заставляя услышать и увидеть то, что ведет к неизбежной гибели человечества.

Приятно сознавать, что в Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения наши юноши и девушки называют произведения Эркина Вахидова нравственной опорой, источником духовного богатства, здоровой совести. Их любят, ценят, им следуют.

Чавандоз (наездник) из Кувы **Бехзодбек Нодиров,** осваивающий искусство джигитовки




в ОСО «Ватанпарвар» перед срочной военной службой, гордится творчеством великого земляка-ферганца:

– Еще в детском саду знал отрывки из стихотворений Эркина Вахидова. С удовольствием их декламировал, старался читать выразительно. Особенно из поэмы «Нидо» («Призыв»). Тогда до конца еще не понимал смысла читаемого, но произносил каждую строку с чувством патриота.

Более близко познакомился с жизнью и творчеством Героя Узбекистана, народного поэта в пятом классе. По сей день помню первый урок, посвященный Эркину Вахидову. Когда учительница спросила, кто знает его стихи, я поднял руку и гордо прочитал отрывки, выученные в детстве. Меня похвалили.




В десятом классе мы с товарищами подготовили инсценировку по трагедии Гёте «Фауст», переведенной Эркином Вахидовым. Репетировали с особым уважением к переводчику, посвятившему этому важному труду пять лет.

Вместе с родными и одноклассниками часто посещаем мемориальный музей имени Эркина Вахидова в Национальном парке культуры и отдыха «Ijodkorlar bog'i» города Маргилана. В музее представлены экспонаты, отражающие жизнь и творчество поэта, драматурга, общественного деятеля.

С годами мое отношение к творчеству знаменитого земляка становится серьезнее и осознаннее. В моей скромной библиотеке есть его сборники «Восточный берег» (удостоен Государственной премии имени Хамзы), «Письмо в будущее», «Живые планеты», переводы «Персидских мотивов» С.Есенина и «Фауста» И.-В.Гёте. Когда сажусь на коня, вспоминаю стихотворение «Свободный край – Узбекистан», где наша независимая страна сравнивается с легендарным крылатым скакуном.

**Аслзода Баходирова,** победительница международной олимпиады по математике и иностранному языку, учащаяся академического лицея при Вестминстерском университете, впервые услышала об Эркине Вахидове от бабушки-филолога:

– У бабушки богатая библиотека. Не просто читает книги, а проводит их глубокий анализ. Именно от нее узнала, с каким вниманием один из моих любимых авторов относился с национальным поэтическим традициям. Прослушала целую лекцию о жанровом своеобразии, об использовании аруза – особой метрической системы стихосложения, свойственной узбекской классической поэзии. И все это на примере «Ёшлик девони» («Диван молодости»). Мы вместе смеялись над «Анекдотами Дониш-кишлака», где обличаются подхалимство, лицемерие, жадность.

Было интересно сравнить три перевода одного стихотворения о мощи стали («Сталь»): она обретает самую большую силу, становясь пером.

Любимое стихотворение – «Узбегим», ставшее песней. Нравится пьеса «Золотая стена».

Герой Узбекистана Эркин Вахидов – гордость нации. Его творчество пронизано любовью к человеку, добротой, высокой нравственностью. Образы надолго остаются в памяти. Считаю, что сборники поэта могут стать надежными спутниками для каждого человека, особенно для молодежи.

***

*Вовсе не удивительно, что произведения Эркина Вахидова находят отклик у молодых читателей. Сам он как-то заявил: «Мне юностью в окошко дышит ветер», «Мы сердцем до сих пор еще студенты», скрепляя родство с подрастающим поколением и обращаясь к нему вне времени.*

*Строки от поэта с пламенным сердцем остались и формируют характеры по законам человечности.*

**Ольга АЛЕКСАНДРОВА**



УЧЕНИЕ С УВЛЕЧЕНИЕМ





# РАЗБЕРЕМ НА АТОМЫ

**«Наука – это модно, быть модным – это круто!» – под таким девизом в Узбекистане прошел III Фестиваль науки и атома. Мероприятие призвано рассказать молодежи о последних достижениях в сфере атомной науки и технологий, а также популяризировать инженерные специальности среди школьников и студентов.**



Фестиваль проводится уже в третий раз при поддержке Информационного центра по атомным технологиям (ИЦАТ) в Ташкенте, агентства «Узатом» и госкорпорации «Росатом». Аналогичные проекты, нацеленные на популяризацию науки и технологий, проводятся во многих странах, где развиваются атомная отрасль и ядерные технологии. Среди них Армения, Бангладеш, Беларусь, Вьетнам, Египет, Индия. В Узбекистане фестиваль впервые состоялся в 2019 году и сразу привлек внимание молодежи.

На этот раз организаторы принимали гостей сразу на двух площадках – в Ташкентском филиале Национального исследовательского ядерного университета «МИФИ» и ИЦАТ. Были также задействованы страницы Информационного центра в социальных сетях, так что проект получился международным.

– Мы рады, что Фестиваль науки и атома привлек внимание юношей и девушек, – отметила руководитель ИЦАТ **Гулрухсор Равшанова.** – С каждым годом все больше молодых людей в нашей стране проявляют серьезный интерес к этой сфере. Школьники и студенты активно откликаются на новые форматы, где образование и наука тесно переплетаются с современными технологиями. Кроме того, благодаря таким проектам участники узнают, каким образом ядерные технологии способствуют улучшению качества жизни, как используются в различных областях – промышленности, сельском хозяйстве, медицине – и какую роль играют в развитии страны.

Чтобы рассказать о такой непростой теме понятно и интересно, организаторы подготовили насыщенную двухдневную программу мероприятий. Чего в ней только не было! Квест из интеллектуальных игр, научные дискуссии, выступления экспертов и студентов – будущих ядерных физиков и энергетиков. Одновременно в ИЦАТ проводились мастер-классы по робототехнике, интерактивные викторины, эксперименты с электрическим током и экскурсии.

В первый день фестиваля филиал НИЯУ МИФИ посетили 180 школьников. Ребятам представилась возможность узнать о современном лабораторном оборудовании, интересных открытиях в области ядерной физики, оптики, химии. Ученики также проверили уровень своих знаний, отвечая на вопросы по истории, географии, спорту, искусству. Неподдельный восторг вызвало участие в серии интеллектуальных игр – «Атомный дубль», «Научный хронограф», «Техностратегия», а также научно-популярном ток-шоу «Разберем на атомы». Широта взглядов, умение быстро реагировать и решать задачи, эрудиция – все эти качества, которые оттачивались в ходе интерактивных проектов, обязательно пригодятся будущим ученым.

Во второй, «студенческий», день фестиваля гостями НИЯУ МИФИ стали представители ТГТУ и физического факультета НУУ. Юноши и девушки приняли участие в дискуссиях «Глобальная атомная энергетика» и «Будущее атомной энергетики». Для многих из тех, кто выступал с докладами, это был первый опыт проведения самостоятельной исследовательской работы и научной презентации перед будущими коллегами.



– Чтобы подготовиться к выступлению, мне пришлось проштудировать немало литературы, проанализировать ее, сделать выводы и сформулировать мысли понятным для молодежи языком, – делится опытом студент 2-го курса направления «Теплоэнергетика и теплофизика» филиала НИЯУ МИФИ **Рузмат Сотиволдиев.** – До этого не приходилось выступать перед большой аудиторией, поэтому стояла еще одна задача – научиться справляться с волнением. Вроде бы все получилось, и мой доклад даже отметили как один из лучших. Для меня это бесценный опыт и еще один шаг в науку, с которой хочу связать жизнь.

На этом интеллектуальные «баталии» не закончились: состоялся «Научный бой», во время которого студенты филиала в креативной форме презентовали направления обучения в вузе, рассказывали сверстникам о своей будущей деятельности.

За происходящим внимательно следил специальный гость фестиваля – известный в России популяризатор атомной науки, физик-ядерщик, научный блогер Дмитрий Горчаков. В своем выступлении он рассказал о трендах развития атомной энергетики в мире и ее перспективах.

– По образованию я физик-ядерщик, так что говорили мы со студентами на одном языке. Но главное для меня было пообщаться с молодежью, ответить на вопросы, понять настрой юношей и девушек, – отмечает **Д.Горчаков.** – Что касается самих мероприятий, это довольно интересный, даже неожиданный формат. Мне понравились выступления студентов: видно, что они живые и активные, очень вовлечены в процесс. Думаю, ребятам было интересно рассказывать о том, чему они учатся, так как аудитория не до конца это понимает. Полезный опыт и для гостей фестиваля, и для самих участников.

Помимо офлайн-мероприятий, состоялись научные беседы и дискуссии с известными экспертами из России, Узбекистана и Казахстана. Авторы лучших докладов и победители интеллектуальных конкурсов награждены ценными призами.



**Алина ЯГОДКИНА**

YOSHLAR oVOZI
Молодежь Узбекистана
WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI
№1 (16455)
2022-YIL
5-YANVAR




# УКРЕПЛЕНИЕ СЕМЬИ - ЭТО САМОЕ ВАЖНОЕ

***В 2021 году социальная сфера в нашей стране претерпела качественные изменения. Это связано в том числе с совершенствованием деятельности ассоциации «SOS – Детские деревни Узбекистана», установлением сотрудничества с рядом организаций и ведомств в сфере предотвращения социального сиротства, всесторонней поддержкой семей, направленной на избежание изъятия ребенка.***

***Какие задачи, поставленные перед организациями-партнерами, уже реализованы? Какие проблемы еще предстоит решить? Эти важные вопросы обсуждались экспертами на круглом столе «Повышение потенциала специалистов и заинтересованных сторон, работающих с детьми и семьями, для точной оценки и адекватного реагирования на проблемы целевой группы». Мероприятие состоялось в филиале «SOS – Детские деревни» города Ташкента.***



– В этом году мы начали тесное сотрудничество с Национальной гвардией, столичным хокимиятом, Главным управлением здравоохранения города Ташкента, – говорит директор филиала **Зебо Исакова.** – Приоритетные задачи – создание системного процесса помещения детей во все формы государственной опеки и возвращения их в их родные семьи, который будет основан на соблюдении наилучших интересов ребенка, а также профессиональное развитие работников социальной сферы, сопровождение молодых людей, оставшихся без попечения родителей, при переходе к самостоятельной жизни.

Однако не стоит забывать, что социальная помощь не должна быть ориентирована исключительно на детей, уже оказавшихся в трудной жизненной ситуации. Необходимо поддерживать семьи на уровне сообщества, проводить профилактическую работу и оказывать всестороннюю поддержку, направленную на предотвращение необходимости изъятия ребенка. Именно такую услугу оказывает специально созданная Служба предотвращения социального сиротства (СПСС).

В центре внимания специалистов SOS-деревни – работа со 111 семьями. Им предоставляется психологическая, юридическая и материальная помощь. Усилия уже принесли плоды: 70 ячеек общества, говоря профессиональным языком, стали «самодостаточными», то есть дети остались с родителями, взрослые получили правовую поддержку и нашли работу. Это значит, что ребенок сегодня живет и воспитывается в благополучной атмосфере.

Как уже отмечалось, партнером филиала в этом году стала Национальная гвардия. Новое направление работы закреплено в постановлении Президента «О мерах по внедрению кардинально обновленной системы воспитания детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей».

> Социальная помощь не должна быть ориентирована исключительно на детей, уже оказавшихся в трудной жизненной ситуации. Необходимо поддерживать семьи на уровне сообщества, проводить профилактическую работу и оказывать всестороннюю поддержку, направленную на предотвращение изъятия ребенка.

Дома «Мехрибонлик», детские городки, детские дома семейного типа и дома ребенка системы Министерства здравоохранения (учебно-воспитательные учреждения) теперь закреплены за Национальной гвардией.

– Военнослужащие и сотрудники Нацгвардии также курируют детей-сирот, не достигших 25 лет, взятых под опеку, попечительство и в семью на воспитание (патронат), – подчеркнула майор **Дилором Худайберганова.** – Из тысячи ребят, которые находятся под нашим шефством, более 500 размещены в семьях и 400 – в институциональных учреждениях. С ними проводится адресная работа, в которой участвуют профессорско-преподавательский состав вузов, психологи. Также уделяется внимание материальной поддержке мальчиков и девочек.

Кроме того, организуются духовно-просветительские и культурные мероприятия, спортивные соревнования, детей вовлекают в кружки по информационным технологиям.

По словам участников круглого стола, реформирование системы воспитания и защиты несовершеннолетних направлено на исключение институциональных учреждений и обеспечение альтернативных форм семейной опеки. Укрепление биологической семьи – это самое важное.

Специалисты также обсудили вопросы деинституционализации социального сиротства. Ведь сотрудничество организаций направлено прежде всего на разработку индивидуального плана реинтеграции для каждого ребенка, совершенствование методических навыков по оказанию социальной помощи детям и их семьям.

**Наргиза ИСМАНОВА**







WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI
YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

РЕГИОНЫ НА ЛАДОНИ

# Гостевые дома в Паркенте

***Побывав хотя бы один раз в горной местности, покрытой белоснежными снегами, – Паркентском районе Ташкентской области, вам захочется возвращаться туда вновь и вновь.***

В ходе состоявшейся в октябре прошлого года встречи с избирателями Ташкентской области Президент обратил внимание на необходимость дальнейшего развития туристического потенциала Паркентского района. В частности, отмечалось, что следует построить новую магистраль протяженностью 30 километров от парка «Новый Узбекистан» до уютных уголков Паркента и наладить движение скоростных автобусов от Ташкента до этой территории. На развитие инфраструктуры района будет выделено 100 миллиардов сумов. Здесь планируется внедрить специальный налоговый режим, касающийся сферы туризма. При этом предприниматели в течение трех лет станут выплачивать налог с оборота и социальный налог по ставке 1 процент и всего 1 процент от суммы налога на собственность, земельный и водный налоги.



Вдоль дорог появятся объекты торговли, общественного питания и услуг, где будет создано по меньшей мере три тысячи новых рабочих мест. На это выделят кредиты в размере 200 миллиардов сумов. Сто гектаров в Ангренском, Бостанлыкском, Паркентском, Ахангаранском районах, предназначенные под строительство зон отдыха, загородных дворов, выставлены на открытый аукцион.

В ходе визита в область 19 марта 2021 года, принимая во внимание туристический потенциал Ташкентской области, Президент также наметил строительство 400 семейных гостевых домов.

– Согласно плану среди предпринимателей проведена работа по пропаганде организации в Паркентском районе 50 гостевых домов, – сказал сотрудник Главного управления по развитию туризма Ташкентской области Шербек Жиянов. – Желающим заняться предпринимательством в этом направлении даны разъяснения по всем вопросам. К настоящему времени 33 семьям уже выданы документы на открытие гостевых домов.

Такой шаг будет способствовать увеличению туристического потока и развитию индустрии гостеприимства.

**Абдулазиз МУСАЕВ (УзА)**



# Неповторимая «Долина легенд»

ВСЕ В ПАРК!

***Парк культуры и отдыха «Долина легенд», ставший в последние годы украшением Намангана, превратился в визитную карточку не только города, но и всей Ферганской долины.***

В мае 2018-го и феврале-марте 2019 года Президент Шавкат Мирзиёев во время пребывания в Наманганской области ознакомился с проектом этого парка и дал ему название «Afsonalar vodiysi» – «Долина легенд».

На территории площадью 155 гектаров ООО «Наманган истиклол боги» реализовало проекты стоимостью 123 миллиона долларов. При этом важную роль в своевременном выполнении намеченных работ сыграло выделение Узнацбанком 12 миллионов долларов кредитных средств.

В парке расположены аттракционы (в том числе водные), амфитеатр на 2400 мест, 16 бассейнов, десять центров услуг и пять технических строений, два современных искусственных водопада и музыкальные фонтаны. Также действуют три ресторана, обслуживающие 800 человек, улица, на которой размещены 112 магазинов, две автостоянки на 1800 мест. Все это способствуют привлечению туристов и гостей.

Построенная вблизи парка соборная мечеть, которая может одновременно вместить 15 тысяч человек, стала настоящим подарком для жителей Намангана.

– В «Долине легенд», которая создается в соответствии с постановлением Кабмина «О мерах по организации современного парка культуры и отдыха в городе Намангане» от 16 сентября 2017 года, продолжается реализация перспективных проектов, – говорит заместитель директора парка Иброхим Маматкулов. – В настоящее время здесь трудятся около тысячи рабочих и служащих, планируется строительство новых сооружений. В марте 2022 года на территории парка будет возведен трехэтажный центр ремесленников, который станет самым крупным не только в Узбекистане, но и во всей Центральной Азии, а также гостиница на 400 мест и жилые виллы на 100 мест.

Одним словом, в «Долине легенд» создаются все необходимые условия для отдыхающих, туристов. Работают различные аттракционы, высаживаются декоративные деревья и кустарники.

Прекрасный парк способствует повышению туристического потенциала Намангана, увеличению туристического потока. А главное, дарит эстетическое наслаждение и благоприятно влияет на городской микроклимат.

**Окилхон ДАДАБОЕВ (УзА)**

ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ

# ЛЮБИТЕ ЛИ ВЫ САМАРКАНД?

**С таким вопросом глава Самаркандской области Эркин Турдимов обратился к населению региона и предложил внести вклад в его развитие**



«Хотите ли вы, чтобы Самарканд стал благоустроенным, красивым, истинно неповторимым местом в мире?» Население попросили ответить на этот и другие вопросы через онлайн-систему Самаркандского областного хокимията – сайт http://sqabul.uz/.

«Может быть, вас волнует какая-то проблема, недостаток в жизни нашей области? Напишите об этом без всяких сомнений, мы вместе найдем решение. Не забывайте: трудно осуществить изменения в какой-либо отрасли без общественного контроля. Поэтому давайте внесем свою лепту в развитие нашей Родины, вместе решим проблемы!

В развитие Самарканда будут вносить свой вклад люди, которые искренне любят его, которым небезразлична его судьба. Вы с нами?» – пишет Э.Турдимов.



Ранее глава области отмечал, что необходимо продолжить работу по благоустройству территорий, выявлять недостатки и проблемы, эффективно используя возможности общественного контроля и создав для этого электронную платформу.

**Ольга ЛИДИНА**




Kirib kelgan yangi 2022-yil yurtimizga qut-baraka, tinchlik-xotirjamlik olib kelsin. Barchangizga oilaviy baxt, mehnat faoliyatingiz va ilm yoʻlida yangi marralarni zabt etish nasib qilsin.

# Buxoro muhandislik texnologiya instituti jamoasi



*Reklama huquqi asosida*

№ 1 (16455)
2022-YIL 5-YANVAR
WWW.YOSHLAROVOZI.UZ YOSHLAROVOZIUZ@MAIL.RU @YOSHLAROVOZIUZ @YOSHLAROVOZI
YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана

ONA TABIAT



# Mehr hissi uyg'ondi

***Sangzor daryosi qirg'oqlari va havza bo'ylarini makon qilgan qunduz, suv kalamushi, jayra va shu kabi mayda sut emizuvchilar tungi jonivorlar hisoblanib, kun botishi bilan faollashadi.***

Yorqin ko'rinishdagi qunduzlar ozuqa ilinjida suvga sho'ng'ib, yaxshi suza oladi. Barmoqlari suzgich parda bilan bir-biriga qo'shilib ketgan, ov qilish ularni toliqtirganda ham chaqqon harakatda bo'ladi. Ikki yoni va dumi yaltiroq, och qo'ng'ir tusda ekani bilan ajralib turadi. Bo'sh vaqt topdi deguncha quyosh taftida isinib, taranib oladi. Shunda momiq tukli qalin mo'ynalari yanada tovlanib ketadi. Mo'ynalaridan qimmatbaho yoqa va telpaklar tikiladi.

Bir kuni peshindan so'ng o'n yashar Komiljon bobosi Turg'un amakiga ergashib daryo yoqasida bir-birining pinjiga kirib olgan qunduz bolalariga ko'zi tushdi. Tug'ilganiga bir hafta ham bo'lmagan jonivorlarning ko'zlari yumuq va nochor ahvolda edi. Harakatlanishga madori yo'q, badaniga loy yopishgan. Mittivoylarning mushkul ahvolda qolishi juda xavfli edi. Negaki, yirtqichlarga oson o'lja bo'lishi turgan gap. Aftidan himoya va yordamga muhtoj edi.

Dunyoda oliyjanob kishilar ko'p. Bobo va nabirada jonivorlarga g'amxo'rlik qilish hissi uyg'onib, ularni olib ketish tadorigini ko'rayotganida kutilmaganda ona qunduz fermer Turg'un amakining qo'li ustidan sirg'anib o'tib, tirnab oldi. U jonivorning dumini ushlashga ulgurdi va tetigi bilan yerga bosib, bo'yniga sirtmoq solmoqchi bo'lganida og'zini ochib qarshilik ko'rsata boshladi. Fermer hamon dumini qo'yib yubormas, jonivor esa oyog'ining tagidan damba-dam boshini chiqarib tishlari bilan kiyimiga yopishardi. Bolakayning esa yaqinlashishga yuragi dov bermasdi. Aftidan qunduz osonlikcha taslim bo'lmasdi.

"Kurash" biroz davom etdi. Fermer shimi pochasining uvadasi chiqqan, tirnalgan qo'lidan qon sizib oqayotgan bo'lsa-da, parvo qilmasdi. Shu orada qishloq yigitlari kelib ularga ko'maklashdi. Jonivor og'ziga tiqilgan tayoqchani g'ajir, fermer esa bundan foydalanib uning bo'yniga sirtmoq solib, bog'lashga ulgurdi. O'lja tinchib, sekin-asta yetakka ko'nika boshlayotganidan barcha xursand edi. Biroq xursandchilik uzoqqa cho'zilmadi. Yo'lda jonivor har tarafga sapchir, oxiri yotib olib yurishdan tamoman bosh tortdi.

Qosh qoraygach, bobo va nabira haligi yigitlar bilan xayrlasharkan o'ljani qopga joylab, ortiga qaytishdi. Ularning yuzlarida tabassum va mag'rurlik alomatlari paydo bo'lib, barcha chekkan tashvishlari unut bo'ldi. Qamishzor va jarlikdan sho'x daryoning shovullashi eshitilib turardi.

Yo'l-yo'lakay bolakayda qunduz bolalarini o'g'rincha ov qiluvchilardan asrash va parvarishlash istagi paydo bo'ldi. Bobosi bunga bajonudil rozilik berdi. Tez orada hovli o'rtasida hovuzcha barpo etilib, jonivorlarning hayot tarzi va rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratildi. Ko'p o'tmay ona-bola qunduzlar daryodagi sevimli go'shalariga qo'yib yuborildi. Bu noyob jonivorlar maxsus ruxsatnoma orqaligina ovlanadi.

Tabiatni sevgan, uni asrab-avaylagan kishilar qalbida ona yurtga mehr hissi yanada jo'sh urishi tabiiy.

**Malika QAYUMOVA,
Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi**

NAHOTKI?!



# KORONAVIRUS YETIB BORMAGAN MAMLAKAT BORMI?

COVID-19 pandemiyasi tarqalganiga ikki yil bo'ldi, koronavirus kirib bormagan, bu kasallik tufayli ijtimoiy, iqtisodiy muammoga duch kelmagan mamlakat deyarli qolmadi.

Bugungi kunda koronavirusga chalinganlar dunyo bo'yicha 278 milliondan oshdi. Insoniyat virus tarqalishining birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo to'lqinlarini boshdan kechirdi. Virus mutatsiyaga uchramoqda. Hindcha, braziliyacha, afrikacha variantlari tarqaldi. "Delta" oxirgisi bo'lsa kerak, deyilgandi, biroq "omikron" shtammi paydo bo'ldi-yu, shitob bilan mintaqalarni, mamlakatlarni birin-ketin zabt eta boshladi. Ayni payt Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, koronavirusning noyabr boshida aniqlangan "omikron" shtammi allaqachon dunyoning 100 dan ziyod mamlakatiga kirib borgan. Shunga qaramay, dunyo xaritasida koronavirus yetib borolmagan mamlakatlar ham topiladi. Rasmiy ma'lumotga qaraganda, ayni dam koronavirussiz mamlakatlar soni to'rtta, biri – qo'shnimiz, MDHga a'zo – Turkmaniston.

Turkmanistonda haligacha COVID-19 bilan bog'liq birorta ham fakt yo'q. Koronavirusning shum xabari paydo bo'lgan kundan boshlab mahalliy hukumat xorijliklarning mamlakatga kirishini, yuk tashuvlarini qat'iy taqiqladi. Joriy yil iyulida mamlakatning 18 yoshdan yuqori barcha aholisini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash majburiy qilib belgilandi. Buning uchun hukumat Rossiyada ishlab chiqarilgan "SputnikV", "EpiVakKorona" va Xitoyda ishlab chiqarilgan CoronaVac vaksinalarini sotib oldi. Ayni paytgacha Turkmaniston aholisining 80 foizi emlab bo'lingan.

Dunyoning eng yopiq mamlakati hisoblangan Shimoliy Koreyada ham shu kungacha koronavirusga chalinish bilan bog'liq birorta holat qayd etilmadi. Pandemiyaga qarshi kurashda mamlakat rahbariyati asosiy e'tiborni o'ta qattiq karantin tartibi joriy qilishga qaratdi.

KXDR birinchilar qatorida COVID-19ga qarshi cheklov belgilagan mamlakat hisoblanadi. Fevral oyida yo'lovchi tashish to'xtatilgan edi. Xorijdan keltirilayotgan tovarlar yoppasiga dezinfeksiya qilina boshladi. Mamlakatni tashqi dunyo bilan bog'lab turgan yagona tarmoq Xitoyning Dandun va Shimoliy Koreyaning Siniju o'lkasi o'rtasidagi ko'prik bo'ldi. Mamlakatga keltirilayotgan gumanitar yuk ham shu ko'prik orqali o'tadi. Yana boshqa talablar ham qo'yildi. Masalan, jamoat ovqatlanish korxonalarida odamlar bir joyga besh kishidan ko'p to'planmasligi, soat 21:00 ga qolmay uyga ketishi, shuningdek, har doim niqob taqib yurish, qo'llarni dezinfeksiya qilish qat'iy qilib belgilandi. Bundan tashqari, barcha kirish joylari tana haroratini o'lchaydigan uskuna bilan jihozlandi. Aholini emlash masalasiga ham hukumat jiddiy yondashmoqda.

Shu vaqtgacha Okeaniyada joylashgan orol-davlatlar tashqi dunyodan alohidaligi sabab xavfsiz hisoblanardi. Afsuski, koronavirus bu yerlarga ham yetib keldi. O'tgan yil oktabr oxirida COVID-19 virusini yuqtirish bilan bog'liq ilk holat Tonga Qirolligida qayd etildi. Mamlakatda ilk bor aniqlangan infeksiya Yangi Zelandiyadan uchib kelgan sayyohda tasdiqlandi. Shunga qaramay, Okeaniyadagi ikkita orol mamlakat JSST tomonidan pandemiya to'lqini yetib bormagan mamlakat sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yurtlarning biri - Nauru.

Aholisi atigi 10 ming 930 kishidan iborat mitti davlatchaga eng yaqin yer 320 kilometr masofada joylashgan. Mamlakatdagi ikkita umummilliy kasalxonada 14 nafar malakali shifokor ishlaydi. Agar koronavirus kelganda bu orol-davlatga juda og'ir bo'lishi kunday ravshan edi. Shu sababli pandemiya boshlanishida hukumat tomonidan mamlakatda favqulodda holat e'lon qilindi. Orolga keladigan xorijliklar ikki haftalik majburiy karantinga olindi, boshqa davlatlar bilan havo yo'li orqali qatnovlar cheklandi. Aholini immunizatsiyalash kampaniyasi faol olib borildi. Natijada Nauru hukumati shu yilning may oyida mamlakat aholisini emlash bo'yicha jahon rekordi(108 foiz)ni o'rnatgani haqida bayonot berdi. Bu shunchaki gap emas, chunki katta yoshdagi aholi hamda xorijlik sayyohlarni to'liq emlash uchun mamlakatga yetarli vaksina keltirilgandi.

Koronavirus qayd etilmagan mamlakatlarning to'rtinchisi Tinch okeani Polineziyasidagi Tuvalu davlatidir. Bu zaminga yiliga ko'pi bilan 200 sayyoh keladi. Shunga qaramay, o'tgan yil mart oyida davlat pandemiya tarqalishiga qarshi qattiq kurash boshladi. Hukumat favqulodda holat e'lon qildi, mamlakatga keladiganlarga cheklov qo'yildi, orol bo'ylab karantin joriy qilindi. Chegaralar faqat hayotiy zarur mahsulot tashiydigan kema va samolyotlar uchun ochiq qoldirildi. Ayni payt Tuvaluda aholining 49,9 foizi emlab bo'lingan. Xorijiy fuqarolar mamlakatga kiraman, desa, to'liq vaksina olgani haqidagi sertifikat, PSR-test salbiy natijasi taqdim etishi shart. Bundan tashqari, xorijlik mehmon kelayotgan yo'nalishi va so'nggi yarim yilda borgan mamlakatlari to'g'risida ma'lumot berishi lozim. Shundan keyin mehmon 14 kunlik karantinda o'tiradi.

Ko'rinib turibdiki, yuqorida nomi keltirilgan davlatlarda koronavirus tarqalmagani shunchaki tasodif emas. Bu yurtlarda hukumat ofat kirib kelishiga qarshi o'ta jiddiy choralar ko'rgan. JSSTning barcha tavsiyalariga to'liq rioya qilinishi ta'minlangan.

**S.RAHIMOV**

YOSHLIK ILHOMLARI

# QISHLOQDA...

*Juda baxtli yashar odamlar.*
*Kaftdekkina yeri, tuprog'i bilan.*
*Qishloqda...*
*Shunday baxtli yashar odamlar,*
*Ham qayg'u, orzusi, armoni bilan.*

*Bolalari shaharga ketgan,*
*Biri davlat izlab, biri baxt izlab.*
*Tahajjuddan bomdodga qadar,*
*Momom-chi, ularga baxt so'rar bo'zlab.*

*Men entikib keldim shovqin shahardan,*
*Qishloqning dardiga xuddi doriday.*
*Netay sovib ketgandek ko'nglim,*
*Onamning tandirda qolgan noniday.*

*Yuragimda bolalar sog'inch.*
*Ko'ksimga botadi alamli tikan.*
*Chiroqlar ko'p hayhot shaharda,*
*Lek yulduzlar ko'rinmas ekan.*

*Tong yorishmay ko'cha supurar,*
*Sochlari supurgi suluv bir malak.*
*O'n to'qqiz yosh endigina u,*
*Orzusi shaharda qolgan kelinchak.*

*Turshak, mayiz to'la jamadon,*
*Kenjasiga taxlar safarlik.*
*Olim bo'lib qaytsa-ku yaxshi...*
*Yo'qsa, ortar bitta "shaharlik".*

*Qishloqda...*
*Juda banddir – rosti odamlar,*
*Kundalik tashvishi, yumushi bilan.*
*Qishloqda...*
*Juda baxtli – rosti odamlar,*
*O'zlari kashf etgan turmushi bilan.*

# TA'MA

*Robiya Adaviya — Sharq tasavvufida haqiqiy muhabbat — ishqi ilohiy g'oyasini targ'ib qilgan birinchi mutasavvuf ayol haqida rivoyat...*

*Har kimning bir gunohi bor,*
*Har kimning bir savobi.*
*Robiya ham yo'lda edi,*
*Olib otash va obi.*

*Olamon ham lol-u hayron,*
*Unga zimdan boqardi.*
*Robiya-chi o'z ko'nglida,*
*Ishq olovin yoqardi.*

*So'radilar betob bilib,*
*Avval uning tobini.*
*So'ng dedilar: – "Ey Robiya,*
*Ne qilursan obini?"*

*"Taassuf! Ming bor*
*achingayman,*
*Sizlarning holingizga.*
*Mehribonsiz shunchalar,*
*Ketguvchi joningizga.*

*Shu suv birla o'chiray men,*
*Jahannamning o'tini.*
*Odamlarni kuydirmasin,*
*Toki uning tutuni.*

*Yana jannat umidida,*
*Sajdaga bosh qo'ydingiz.*
*Yaratganning jamolimas,*
*Siz behishtni suydingiz.*

*Shunday ekan,*
*shu o't birla,*
*Yondiray men firdavsni.*
*O'ldiray men odamlarga*
*To'siq bo'lgan bu nafsni.*

*Toki dahshat olovida*
*Yonmasinlar vujudi.*
*Toki jannat bo'lmasin*
*Odamlarning umidi".*

*Robiya shu jur'at ila,*
*Haq yo'lida odimlar.*
*Uning aql-u zakosiga,*
*Tahsin aytdi odamlar.*

# MILLAT QIZLARIGA...

*"Kimdir, ayol yo bokira bir qiz,*
*Vatan uchun o'lmog'i kerak-ku tug'ishdan ortib!"*

*Javlon Jovliyev*

*Qoshingga o'smalar qo'ygin, onajon,*
*Ko'z yoshmas, qaroqqa surmalar qo'ygin.*
*Qiz tug'ib nima ham ko'rding, ayt qachon?*
*Yaxshisi, rayhonlar o'stirib, suygin.*
*Qizingning ko'ngli tosh,*
*Palahmon toshi.*
*Shaharga otilgan, qishloqni qo'yib,*
*Yil o'tar, yo'qlamas o'zidan ortib,*
*Sen esa kutasan ko'zing yo'l o'yib.*

*Tug'ilmay yelkangga yuk bo'ldim, qara,*
*Qaddingni ushoqday eggan og'ir yuk.*
*Etagingga o'nggan g'amlarni olib,*
*Kel, mening bo'm-bo'sh yuragimga to'k.*
*Epli qiz bo'lmadi, qizing nachora,*
*Umidlarga to'la sening sandig'ing.*
*So'zlarga oshiqib, kechirgin yana,*
*Daydi xayollarga ergashdi qizing.*
*"Qayt — deydi, — o'qima, qo'y", deydi otam,*
*"Nomusimsan", deydi, mahsharga qadar,*
*Lek ona, bir qo'rqoq tug'ishga yarar,*
*"Millatim!" demagan qiz bo'lsa, agar!*

**Mashhura ABDURAYIMOVA**

## Iqror

— Nega 8 yil umringizni tibbiyot institutida o'tkazib, veterinarlik kasbini tanladingiz?
— Odamlarni davolash uchun!



## Ishbilarmon



— Siz dunyodagi eng halol, fidoyi ishchi, deb topildingiz. Umringizda bir bora ham qonundan chekkaga chiqmadim deb hisoblaysizmi?
— Beayb parvardigor...

## Tarbiya markazi

Bir kuni barcha kasb egalari bir yerga to'planishibdi. Shu payt bir olim so'z boshlabdi:

"Kelinglar, shunday markaz ochaylikki, bu markaz o'g'ri-yu yomonning ham, gunohkor-u nomardning ham aqlini kiritib qo'ysin, tarbiyalay olsin".

Ammo yig'ilganlar bu taklifni qanday amalga oshirishni bilmay, boshi qotibdi. Shunda ular orasidan bir qariya chol: "Men deyarli har kuni shunday markaz ochaman, har markazimni o'z egasi bor va ular yuz foiz tarbiya topadi", debdi.

— Tushuntiribroq gapirsangiz, sizning kasbingiz nima o'zi?
— Go'rkov...



## Tomoshagoh



— Nega masxarabozlikni kasb qilgansiz?
— Men qolganlarga o'xshab butun dunyoda tomosha ko'rsatishni xohlamaganim uchun!

## Dard va Davo

Ikki turdagi tadbirkor ishim yurishmadi deya nolisa, chindan quvonaman: biri dorixona egasi, biri spirtli ichimlik sotuvchisi.



## Zaruriyat



Jurnalist — muammo va masalalarni izlaydi, topadi.
Matematik — muammo va masalalarga yechimni izlaydi, topadi.
Jamiyatimiz matematik jurnalistlarga muhtoj.

## Qorovul



— Assalomu alaykum, aka, siz bu masjidda kim bo'lib ishlaysiz?
— Qorovulman.
— Allohning uyini, uning yaratgan bandalaridan qo'riqlaysizmi?
— Yo'q, Yaratganning bandasi ekanini unutib qo'yganlardan qo'riqlayman...

**Otabek ABDUMALIKOV**

# TOSHKENT VILOYATI NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISH VA PROTEZLASH MARKAZI JAMOASI

*2022-yil mamlakatimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb nomlandi. Bu yilda har bir inson qadr topib, o'ylagan barcha ezgu niyatlariga erishishini tilab qolamiz. Eng muhimi, sizni mustahkam sog'liq, oilaviy baxt va xotirjamlik tark etmasin!*




*Reklama huquqi asosida*

YOSHLAR OVOZI Молодежь Узбекистана
MUASSIS:
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:
Hamza ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:
Yelena KALININA
NAVBATCHI MUHARRIR:
Iqbol PARDAYEVA
MUSAHHIHLAR:
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar:
(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma taboq.
**Korxona manzili:** Buyuk Turon ko'chasi, 41.
**Indekslar: 203, 3203**
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-155
Adadi – 622
**Bosishga topshirish vaqti – 21.00**
**Topshirildi – 20.00**
1 2 3 4 5 6